

Qurban hayiti xayru saxovat bayrami



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limi tashabbusi bilan O'zbekiston musulmonlari idorasining Surxondaryo viloyatidagi vakilligi bilan hamkorlikda Termiz shahridagi Imom Termiziylar xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida "Muborak qurban hayiti xayru saxovat bayrami" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limi rahbari Nargiza Rahmatullayeva, O'zbekiston musulmonlari idorasining Surxondaryo viloyatidagi vakili, viloyat bosh imom-xatibi Aliakbar Sayfiddinov, aholi vakillari va yoshlari ishtirok etdi.

Tadbirda Qurban hayiti bayramini xalqimizning milliy qadriyatlariga mos ravishda ixcham va tartibli o'tkazish, mutaxassislarni jalgan holda viloyat bo'y lab aholi o'rtaida bayram kunlari ogohlilikni, hushyorlikni oshirish hamda sun'iy tirbandliklar va noqulayliklar yuzaga kelmasligi uchun transport vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarurligi ta'kidlandi.